



ACADEMIC SPECTRUM

2026-yil 4-son

Ilmiy-metodik jurnal
Научно методический журнал
Scientific and Methodical Journal

ISSN

3093-9089

Бухоро - 2026



ACADEMIC SPECTRUM

Ilmiy-metodik jurnal
Научно методический журнал
Scientific and Methodical Journal

№ 4-Son 2026-yil

**Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Buxoro viloyat Axborot va Ommaviy
komunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2025-yil 26-dekabrdagi
№1273056 sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan**

BOSH MUHARRIR:

Axmadov Nazirjon Rahmat o‘g‘li

Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A‘ZOLARI

Кулешов Валерий Владимирович - pedagogika fanlari doktori, professor
Rossiya Fanlar akademiyasining akademigi (Ukraina).

Andriyenko Yelena Vasilyevna - pedagogika fanlari doktori, professor
(Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va
texnologiya ta‘limi instituti, Novosibirsk, Rossiya).

Romm Tatyana Aleksandrovna - pedagogika fanlari doktori, professor
(Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta‘lim
instituti, Novosibirsk, Rossiya).

Olimov Shirinboy Sharofovich — pedagogika fanlari doktori, professor
(Buxoro davlat universiteti “Pedagogika” kafedrasini mudiri).

Zaripov Lochin Rustamovich - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
(O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy
ta‘limni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot markazi, O‘quv-uslubiy faoliyatni
takomillashtirish boshqarma boshlig‘i).

Safarov Dilmurod Xalimovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
(Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi Akademik faoliyat bo‘yicha direktor
o‘rinbosari)

Nazarov Akmal Mardonovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
(Buxoro davlat universiteti Yoshlar masalalari va ma`naviy-ma`rifiy ishlar bo‘yicha
birinchi prorektor).

Rustamov Shavkat Shuhrat o‘g‘li - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
(Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini mudiri).

Ganjiyev Feruz Furqatovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
(Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini professori).

Ismatova Dilafruz Tuymuratovna - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini dotsenti).

Muxlisov Sodiqjon Saidjonovich - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), (Buxoro davlat universiteti “Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar
kafedrasini dotsenti).

Tilavov Muxtor Hasan o‘g‘li - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini dotsenti).

Mas‘ul kotib:

Dehqonboyev Shohjahon Oybek o‘g‘li – Buxoro davlat universiteti
Psixologiya kafedrasini o‘qituvchisi

EDITOR-IN-CHIEF:

Akhmadov Nazirjon Rahmat o'g'li — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor.

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Valeriy Vladimirovich Kuleshov — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Academician of the Russian Academy of Sciences (Ukraine).

Elena Vasilyevna Andrienko — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Novosibirsk State Pedagogical University, Institute of Physics, Mathematics, Information and Technological Education, Novosibirsk, Russia).

Tatyana Aleksandrovna Romm — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Novosibirsk State Pedagogical University, Institute of History, Humanities and Social Education, Novosibirsk, Russia).

Shirinboy Sharofovich Olimov — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Bukhara State University, Head of the "Pedagogy" Department).

Lochin Rustamovich Zaripov — Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor (Research Center for the Development of Higher Education under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan, Head of the Department for Improvement of Educational and Methodological Activities).

Dilmurod Xalimovich Safarov — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor (Navoi Regional Center for Pedagogical Excellence, Deputy Director for Academic Affairs).

Akmal Mardonovich Nazarov — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor (Bukhara State University, First Vice-Rector for Youth Affairs and Spiritual-Educational Work).

Shavkat Shuhrat o'g'li Rustamov — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor (Bukhara State University, Head of the "Psychology" Department).

Feruz Furqatovich Ganjiyev — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor (Bukhara State University, Professor of the "Psychology" Department).

Dilafuz Tuymuratovna Ismatova — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor (Bukhara State University, "Psychology" Department).

Sodiqjon Saidjonovich Mukhlisov — Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor (Bukhara State University, "Information Systems and Digital Technologies" Department).

Muxtor Hasan o'g'li Tilavov — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor (Bukhara State University, "Psychology" Department).

EXECUTIVE SECRETARY:

Dehqonboyev Shohjahon Oybek o'g'li — Lecturer, Department of Psychology, Bukhara State University.



ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:

Ахмадов Назирджон Рахмат угли — доктор философии по психологии (PhD), доцент.

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА:

Кулешов Валерий Владимирович — доктор педагогических наук, профессор, академик Российской академии наук (Украина).

Андрienко Елена Васильевна — доктор педагогических наук, профессор (Новосибирский государственный педагогический университет, Институт физики, математики, информационных и технологических наук, г. Новосибирск, Россия).

Ромм Татьяна Александровна — доктор педагогических наук, профессор (Новосибирский государственный педагогический университет, Институт истории, гуманитарных и социальных наук, г. Новосибирск, Россия).

Олимов Ширинбой Шарофович — доктор педагогических наук, профессор (Бухарский государственный университет, заведующий кафедрой «Педагогика»).

Зарипов Лочин Рустамович — доктор педагогических наук (DSc), профессор (Научно-исследовательский центр развития высшего образования при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан, начальник управления совершенствования учебно-методической деятельности).

Сафаров Дилмурод Халимович — доктор психологических наук (DSc), профессор (Навоийский областной центр педагогического мастерства, заместитель директора по академической деятельности).

Назаров Акмал Мардонович — доктор психологических наук (DSc), профессор (Бухарский государственный университет, первый проректор по делам молодежи и духовно-просветительской работе).

Рустамов Шавкат Шухрат угли — доктор психологических наук (DSc), доцент (Бухарский государственный университет, заведующий кафедрой «Психология»).

Ганжиев Феруз Фуркатович — доктор психологических наук (DSc), доцент (Бухарский государственный университет, профессор кафедры «Психология»).

Исмадова Дилафруз Туймуратовна — доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент (Бухарский государственный университет, кафедра «Психология»).

Мухлисов Содикжон Саиджонович — доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент (Бухарский государственный университет, кафедра «Информационные системы и цифровые технологии»).

Тилавов Мухтор Хасан угли — доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент (Бухарский государственный университет, кафедра «Психология»).

ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ:

Дехконбоев Шохжахон Ойбек угли — преподаватель кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

G‘aybullayev Alisher Asadovich

Buxoro davlat universiteti psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

MAKTAB UQUVCHILARIDA BULLING XULQ ATVOR SHAKLLANISHINING IJTIMOIY PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktab o‘quvchilarida bulling (tajovuzkor va kamsituvchi xulq-atvor) shakllanishining ijtimoiy-psixologik determinantlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda bullingning kelib chiqishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar - oilaviy muhit, tengdoshlar guruhi, maktab iqlimi, ommaviy axborot vositalari hamda individual psixologik xususiyatlar kompleks tarzda ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, o‘quvchilarda agressivlik, empatiya yetishmasligi, past ijtimoiy moslashuv darajasi kabi holatlarning bulling xulqiga olib keluvchi mexanizmlari yoritiladi. Maqolada profilaktika va psixologik korreksiya choralariga ham alohida e’tibor qaratilib, sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirish muhimligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: bulling, agressiya, ijtimoiy muhit, o‘smirlar psixologiyasi, empatiya, maktab iqlimi, profilaktika

Гайбуллаев Алишер Асадович

Преподаватель кафедры психологии, Бухарский государственный университет

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ФОРМИРОВАНИЯ БУЛЛИНГА У ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация. В данной статье анализируются социально-психологические детерминанты формирования буллингового поведения у школьников. Рассматриваются ключевые факторы, влияющие на возникновение буллинга, включая семейную среду, группу сверстников, школьный климат, средства массовой информации и индивидуальные психологические особенности личности. Особое внимание уделяется таким проявлениям, как агрессивность, дефицит эмпатии и низкий уровень социальной адаптации. Также в работе освещаются механизмы формирования буллингового поведения и предлагаются меры профилактики и психологической коррекции. Подчеркивается важность формирования благоприятной образовательной среды.

Ключевые слова: буллинг, агрессия, школьники, социальная среда, эмпатия, профилактика, адаптация

G‘aybullayev Alisher Asadovich

Lecturer, Department of Psychology, Bukhara State University

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF BULLYING BEHAVIOR FORMATION IN SCHOOLCHILDREN

Abstract. This article examines the socio-psychological determinants of bullying behavior formation among school students. The study explores key contributing factors, including family environment, peer influence, school climate, mass media, and individual psychological traits. Particular attention is given to aggression, lack of empathy, and low levels of social adaptation as critical mechanisms underlying bullying behavior. The paper also discusses preventive strategies and psychological intervention methods aimed at reducing bullying in educational settings. Emphasis is placed on the importance of creating a supportive and healthy social environment within schools.

Key words: bullying, aggression, school students, social environment, empathy, prevention, adaptation

Mavzuning dolzarbligi. Maktab o‘quvchilari orasida bulling xulq-atvorining keng tarqalishi bugungi kunda nafaqat milliy, balki global miqyosdagi dolzarb ijtimoiy-psixologik muammolardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Zamonaviy jamiyatda axborot texnologiyalarining rivojlanishi, ijtimoiy tarmoqlarning kengayishi hamda kommunikatsiya shakllarining o‘zgarishi bullingning yangi

ko‘rinishi - kiberbullingni yuzaga keltirdi. Bu esa o‘quvchilarning ruhiy salomatligiga yanada kuchli salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Respublikamizda ham yoshlar o‘rtasida sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda ta‘lim muassasalarida psixologik xizmat tizimini rivojlantirish, o‘quvchilar o‘rtasida zo‘ravonlik va tajovuzkorlikni oldini olishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Shu bilan birga, amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, ayrim maktablarda o‘quvchilar o‘rtasidagi ziddiyatlar, psixologik bosim va kamsitish holatlari hanuz uchrab turibdi. Bu esa mazkur muammoni chuqur ilmiy tahlil qilish va uning ijtimoiy-psixologik determinantlarini aniqlash zaruratini yanada oshiradi.

Xalqaro miqyosda olib borilgan tadqiqotlar ham bulling muammosining keng ko‘lamini tasdiqlaydi. Jumladan, UNESCO ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha har uchinchi o‘quvchi maktab muhitida bullingning turli shakllariga duch keladi. UNICEF hisobotlarida esa bulling o‘quvchilarning nafaqat akademik ko‘rsatkichlariga, balki ularning ruhiy holati, o‘ziga bo‘lgan ishonchi va ijtimoiy moslashuviga jiddiy zarar yetkazishi qayd etilgan. Shuningdek, xalqaro tadqiqotlar bullingga uchragan bolalarda depressiya, xavotir, ijtimoiy yakkalanish va hatto o‘z joniga qasd qilish xavfi ortishini ko‘rsatmoqda.

Mazkur muammoning dolzarbligi yana shundaki, bulling faqat individual xulq-atvor emas, balki murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa bo‘lib, u oilaviy tarbiya, tengdoshlar guruhi, maktab iqlimi va keng ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liqdir. Shu boisdan, ushbu masalani o‘rganishda kompleks yondashuvni qo‘llash, profilaktik va korreksion dasturlarni ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, maktab o‘quvchilarida bulling xulq-atvorining ijtimoiy-psixologik determinantlarini o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb bo‘lib, sog‘lom avlodni shakllantirish, ta‘lim tizimida xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida ta‘lim tizimida nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarning psixologik xavfsizligini ta‘minlash ham ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, maktab muhitida uchrayotgan bulling (ta‘qib, zo‘ravonlik) hodisasi so‘nggi yillarda jiddiy ijtimoiy-psixologik muammo sifatida e‘tirof etilmoqda. Xalqaro tashkilotlar, xususan UNICEF ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha maktab yoshidagi bolalarning qariyb 30–35 foizi turli shakllarda bulling holatlariga duch keladi. Bu ko‘rsatkich ayrim hududlarda yanada yuqori bo‘lib, o‘quvchilarning ruhiy salomatligi, akademik natijalari va ijtimoiy moslashuviga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, World Health Organization tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar bullingni o‘smirlar orasida depressiya, xavotirlik, o‘z joniga qasd qilishga moyillik kabi og‘ir psixologik oqibatlar bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi. Tadqiqotlarga ko‘ra, bulling qurbonlari orasida psixosomatik buzilishlar va ijtimoiy izolyatsiya darajasi ancha yuqori bo‘ladi. Shu bilan birga, bullingni amalga oshiruvchi o‘quvchilarda ham agressivlik, empatiya yetishmasligi va antisotsial xulq-atvor shakllanishi kuzatiladi.

Respublikamizda ham mazkur muammo dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida o‘quvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar, psixologik muhit va xavfsizlik masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Maktablarda psixologik xizmat faoliyatini takomillashtirish, o‘quvchilarning shaxslararo munosabatlarini sog‘lomlashtirish va konfliktlarni konstruktiv hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb vazifa sifatida belgilanmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda bulling xulq-atvori ko‘plab ijtimoiy va psixologik determinantlar bilan izohlanadi. Jumladan, oilaviy muhit (tarbiya uslublari, ota-onaning nazorati va emotsional qo‘llab-quvvatlashi), tengdoshlar guruhi ta‘siri, maktab iqlimi, ommaviy axborot vositalari va raqamli muhit (kiberbulling) muhim omillar sifatida qayd etiladi. Mashhur olim Dan Olweus tomonidan ishlab chiqilgan nazariyaga ko‘ra, bulling – bu kuchlar notengligi sharoitida muntazam ravishda takrorlanuvchi agressiv xatti-harakat bo‘lib, u ijtimoiy o‘rganish va muhit ta‘siri natijasida shakllanadi.

Bundan tashqari, o‘quvchilarning individual-psixologik xususiyatlari (temperament, o‘z-o‘zini baholash darajasi, empatiya darajasi), shuningdek, ijtimoiy identifikatsiya jarayonlari ham bulling xulq-atvorining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy psixologiya nuqtai nazaridan bullingni guruh ichidagi status kurashi, liderlik uchun raqobat va “o‘zga”ni rad etish mexanizmlari orqali ham tushuntirish mumkin.

Shu bois, maktab o‘quvchilarida bulling xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy-psixologik determinantlarini chuqur o‘rganish, uning oldini olish va profilaktika choralarini ishlab chiqish zamonaviy psixologiya va pedagogikaning muhim ilmiy-amaliy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqot aynan shu muammoning nazariy va amaliy jihatlarini yoritishga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilar o‘rtasida sog‘lom psixologik muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Maktab o‘quvchilarida bulling xulq-atvori shakllanishining ijtimoiy-psixologik determinantlarini o‘rganish masalasi ilmiy adabiyotlarda keng va ko‘p qirrali yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Ushbu muammo bo‘yicha xorijiy va rus olimlari tomonidan olib borilgan izlanishlar bullingni murakkab, ko‘p darajali ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida talqin etadi. Tadqiqotlar evolyutsiyasi shuni ko‘rsatadiki, dastlab bulling individual xususiyatlar bilan bog‘liq hodisa sifatida qaralgan bo‘lsa, keyinchalik u ijtimoiy muhit, guruh dinamikasi va institutsional omillar bilan uzviy bog‘liq jarayon sifatida talqin qilina boshlagan.

Mazkur yo‘nalishda fundamental tadqiqotlar muallifi sifatida Dan Olweus alohida o‘rin tutadi. Uning ishlari bullingni tizimli ravishda o‘rganishga asos soldi va ushbu hodisani “kuchlar notengligi sharoitida muntazam takrorlanuvchi agressiv xatti-harakat” sifatida ta’rifladi. Olweusning empirik tadqiqotlari maktab muhitida bulling keng tarqalganligini hamda u o‘quvchilarning psixologik rivojlanishiga uzoq muddatli salbiy ta’sir ko‘rsatishini isbotladi. Shuningdek, u ishlab chiqqan “Olweus Bullying Prevention Program” maktab miqyosida bullingni kamaytirishga qaratilgan kompleks yondashuv sifatida e’tirof etilgan. Uning tadqiqotlarida bullingning asosiy determinantlari sifatida oilaviy tarbiya, nazorat darajasi, agressiv xulqni qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhit va tengdoshlar guruhi ta’siri ko‘rsatiladi.

Bulling xulq-atvorini tushuntirishda ijtimoiy o‘rganish nazariyasi ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu yo‘nalishda Albert Bandura ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Bandura nazariyasiga ko‘ra, bolalar agressiv xulq-atvorni kuzatish va taqlid qilish orqali o‘zlashtiradi. Ayniqsa, “moral disengagement” (axloqiy chekinish) mexanizmi orqali shaxs o‘z agressiv harakatlarini oqlashga moyil bo‘ladi, bu esa bullingni davom ettirishga olib keladi. Ushbu yondashuv bullingni faqat individual muammo emas, balki ijtimoiy o‘rganish va ijtimoiy me’yorlar mahsuli sifatida tushuntiradi.

Zamonaviy tadqiqotlar bullingni ko‘p darajali (individual, guruhiy va institutsional) omillar kesishmasida o‘rganishga yo‘naltirilgan. Masalan, maktab muhitining ijtimoiy-iqlimiy xususiyatlari bullingning shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Kollektiv samaradorlik (school collective efficacy) darajasi yuqori bo‘lgan maktablarda bulling holatlari sezilarli darajada kam uchrashi aniqlangan. Bu esa bullingni faqat shaxsiy xulq-atvor bilan emas, balki maktabdagi ijtimoiy nazorat, o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlari va umumiy ijtimoiy muhit bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, Robert Thornberg va uning hamkorlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bullingning ijtimoiy-kognitiv determinantlarini chuqur tahlil qiladi. Ularning ishlari shuni ko‘rsatadiki, bulling xulq-atvori individual darajadagi axloqiy qarorlar, empatiya darajasi va o‘zini nazorat qilish bilan bir qatorda, sinf ichidagi umumiy ijtimoiy normalar va “kollektiv axloqiy muhit” bilan ham bog‘liq. Ayniqsa, moral disengagement darajasi yuqori bo‘lgan guruhlarda bulling ko‘proq kuzatiladi, bu esa guruh ichidagi qadriyatlar va me’yorlarning ahamiyatini tasdiqlaydi.

Rus psixologiya maktabida ham bulling muammosi shaxslararo munosabatlar va ijtimoiy muhit kontekstida o‘rganiladi. Masalan, Igor Kon va Anna Rean tadqiqotlarida o‘smirlik davrida agressiv xulq-atvor shakllanishi ijtimoiylashuv jarayoni, oilaviy tarbiya va ijtimoiy nazorat mexanizmlari bilan bog‘liq holda izohlanadi. Ularning fikricha, bulling o‘smirlarning o‘zini tasdiqlashga bo‘lgan ehtiyoji, ijtimoiy status uchun kurash va guruh ichidagi rollar taqsimoti bilan chambarchas bog‘liq.

Bundan tashqari, zamonaviy ilmiy izlanishlar bullingning uzoq muddatli oqibatlariga ham alohida e'tibor qaratadi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, maktab davrida bulling bilan shug'ullangan shaxslar kattalik davrida ham antisotsial xulq-atvoriga moyil bo'lishi mumkin. Bu esa bullingni nafaqat pedagogik, balki kriminologik va ijtimoiy muammo sifatida ham ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Ilmiy adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, bulling xulq-atvori bir vaqtning o'zida bir nechta determinantlar - individual-psixologik xususiyatlar, oilaviy muhit, tengdoshlar guruhi, maktab iqlimi va kengroq ijtimoiy-madaniy omillar ta'sirida shakllanadi. So'nggi yillarda tadqiqotlar sonining keskin ortib borayotgani ham ushbu muammoning dolzarbligini tasdiqlaydi, ya'ni bulling bo'yicha ilmiy ishlar soni so'nggi o'n yilliklarda sezilarli darajada oshgan.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy va rus olimlarining tadqiqotlari bullingni kompleks, tizimli va ko'p omilli hodisa sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuv maktab o'quvchilarida bulling xulq-atvorining ijtimoiy-psixologik determinantlarini chuqur o'rganish va samarali profilaktika strategiyalarini ishlab chiqishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Muhokama. Maktab o'quvchilarida bulling xulq-atvorining shakllanishi murakkab va ko'p omilli ijtimoiy-psixologik jarayon bo'lib, uni birgina sabab yoki omil bilan izohlash mumkin emas. Ilmiy adabiyotlar va empirik tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bulling fenomeni individual xususiyatlar, oilaviy muhit, tengdoshlar guruhi, maktab iqlimi hamda kengroq ijtimoiy-madaniy kontekst o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi. Shu nuqtai nazardan, ushbu muammoni tizimli va integrativ yondashuv asosida tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, individual-psixologik omillar bulling xulq-atvorining shakllanishida muhim determinantlardan biri hisoblanadi. Past empatiya darajasi, yuqori agressivlik, impulsivlik, o'z-o'zini nazorat qilishning sustligi kabi xususiyatlar bullingga moyillikni kuchaytiradi. Bu jihat Albert Bandura tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy o'rganish nazariyasi bilan hamohang bo'lib, unga ko'ra, bolalar kuzatish va taqlid qilish orqali xulq-atvorni o'zlashtiradi. Agar o'quvchi o'z atrofida agressiv xatti-harakatlar mukofotlanayotganini yoki e'tiborsiz qolayotganini ko'rsa, u ushbu xulqni me'yor sifatida qabul qilishi mumkin. Shu bilan birga, moral disengagement (axloqiy chekinish) mexanizmi orqali o'quvchilar o'z salbiy harakatlarini oqlashga urinadi, bu esa bullingning davomiyligini ta'minlaydi.

Biroq bullingni faqat individual xususiyatlar bilan cheklab qo'yish ilmiy jihatdan yetarli emas. Oilaviy muhit ham bu jarayonda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Avtoritar yoki befarq tarbiya uslublari, ota-onaning emotsional sovuqligi yoki aksincha, haddan tashqari nazorati bolalarda agressiv yoki kompensator xulq shakllanishiga olib kelishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oilada zo'ravonlikka guvoh bo'lgan yoki e'tibordan chetda qolgan bolalar maktab muhitida bulling orqali o'zini namoyon qilishga intiladi. Bu esa bullingni ijtimoiy o'rganilgan xulq sifatida talqin qilishga asos beradi.

Shu bilan birga, tengdoshlar guruhi bulling xulq-atvorining shakllanishida eng ta'sirchan omillardan biri hisoblanadi. Maktab yoshidagi bolalar uchun ijtimoiy maqom va guruh ichidagi o'rin juda muhim bo'lib, ayrim o'quvchilar bulling orqali o'z ustunligini namoyish etishga harakat qiladi. Dan Olweus tadqiqotlarida qayd etilganidek, bulling ko'pincha kuchlar notengligi mavjud bo'lgan vaziyatlarda yuzaga keladi va u guruh ichidagi ierarxiyani mustahkamlash vositasiga aylanadi. Bunday sharoitda “kuzatuvchilar” (bystanders)ning roli ham alohida ahamiyatga ega: ular bullingni qo'llab-quvvatlashi, e'tiborsiz qoldirishi yoki unga qarshi chiqishi orqali vaziyat rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Maktab iqlimi va pedagogik muhit ham bullingning shakllanishida muhim determinant sifatida namoyon bo'ladi. Ijroiy psixologik muhit, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi ishonchli munosabatlar, adolatli tartib-intizom tizimi mavjud bo'lgan maktablarda bulling darajasi sezilarli darajada past bo'ladi. Aksincha, nazorat sust bo'lgan, kommunikatsiya zaif tashkil etilgan va konfliktlar konstruktiv hal etilmaydigan muhit bulling uchun qulay sharoit yaratadi. Shu sababli maktab darajasidagi profilaktika choralarini ishlab chiqishda faqat individual o'quvchilar bilan ishlash emas, balki butun ta'lim muhitini sog'lomlashtirish muhimdir.

Zamonaviy davrda bullingning yangi shakli - kiberbulling ham alohida e'tibor talab etadi. Raqamli texnologiyalar rivoji natijasida bulling maktab hududidan tashqariga chiqib, virtual makonga ko'chmoqda. Bu esa uning ta'sir doirasini kengaytirib, o'quvchilarning psixologik holatiga yanada kuchli salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Kiberbulling anonimlik, nazoratning murakkabligi va axborotning tez tarqalishi bilan ajralib turadi, bu esa uni oldini olishni yanada qiyinlashtiradi.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, bulling xulq-atvori ko'p darajali determinantlar ta'sirida shakllanadi va uni samarali oldini olish uchun kompleks yondashuv zarur. Bu yondashuv individual psixologik xususiyatlarni rivojlantirish (empatiya, o'zini nazorat qilish), oilaviy tarbiyani takomillashtirish, tengdoshlar o'rtasida ijobiy ijtimoiy me'yorlarni shakllantirish hamda maktab muhitini sog'lomlashtirish choralari o'z ichiga olishi lozim. Shu bilan birga, pedagoglar va ota-onalarning psixologik savodxonligini oshirish, o'quvchilarda konfliktlarni konstruktiv hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, bulling muammosi nafaqat pedagogik yoki psixologik, balki keng ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan masala bo'lib, uning oldini olish jamiyatning barcha institutlari hamkorligini talab etadi. Faqatgina tizimli, ilmiy asoslangan va uzluksiz profilaktik chora-tadbirlar orqali maktab o'quvchilari o'rtasida sog'lom, xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhitni shakllantirish mumkin.

Xulosa. Maktab o'quvchilarida bulling xulq-atvorining shakllanishi murakkab, ko'p darajali va o'zaro bog'liq ijtimoiy-psixologik determinantlar tizimi bilan izohlanadi. Ushbu tadqiqot mavzusini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, bulling hodisasi faqatgina individual xususiyatlar natijasi emas, balki shaxs, oila, tengdoshlar muhiti va maktab tizimi o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sir mahsulidir. Shu bois, bullingni tushunish va uni oldini olish uchun kompleks, tizimli yondashuv zarur hisoblanadi.

Tahlillar asosida aniqlanishicha, o'quvchilarning shaxsiy psixologik xususiyatlari - agressivlik darajasi, empatiyaning rivojlanmaganligi, o'z-o'zini nazorat qilishning sustligi va past o'zini baholash kabi omillar bulling xulq-atvorining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, oilaviy muhitdagi salbiy omillar, jumladan, befarqlik, zo'ravonlikka moyil tarbiya uslublari yoki emotsional qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi bolalarda agressiv yoki kompensator xulqning rivojlanishiga zamin yaratadi. Bu esa bullingni ijtimoiy o'rganish jarayoni bilan chambarchas bog'liqligini tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, tengdoshlar guruhi va maktab iqlimi bullingning shakllanishida alohida o'rin tutadi. O'quvchilar o'rtasida ijtimoiy maqom uchun kurash, guruh ichidagi ierarxiya va ijtimoiy bosim bullingni kuchaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi. Agar maktab muhitida ijobiy ijtimoiy me'yorlar, o'zaro hurmat va qo'llab-quvvatlash madaniyati yetarli darajada shakllanmagan bo'lsa, bulling holatlarining ko'payishi ehtimoli ortadi. Shu jihatdan, maktab iqlimini sog'lomlashtirish, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ishonchli munosabatlarni rivojlantirish muhim profilaktik choralar sirasiga kiradi.

Zamonaviy sharoitda bullingning yangi ko'rinishi - kiberbulling ham dolzarb muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamli texnologiyalar orqali amalga oshiriladigan psixologik bosim va ta'qib o'quvchilarning ruhiy holatiga yanada chuqur salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa bulling muammosini faqat maktab doirasida emas, balki keng ijtimoiy va axborot makonida ham ko'rib chiqish zarurligini anglatadi.

Yuqoridagi tahlillar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, bulling xulq-atvorining oldini olish faqatgina alohida shaxs bilan ishlash orqali emas, balki barcha ijtimoiy institutlar - oila, maktab va jamiyatning uzviy hamkorligi orqali amalga oshirilishi lozim. Profilaktika jarayonida o'quvchilarda empatiya, bag'rikenglik, o'zaro hurmat va ijtimoiy mas'uliyat kabi sifatlarni rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, pedagoglar va ota-onalarning psixologik bilimlarini oshirish, bullingni erta aniqlash va unga tezkor aralashuv mexanizmlarini ishlab chiqish zarur.

Umuman olganda, maktab o'quvchilarida bulling xulq-atvorining ijtimoiy-psixologik determinantlarini chuqur o'rganish va ilmiy asoslangan profilaktik strategiyalarni joriy etish orqali sog'lom psixologik muhitni shakllantirish mumkin. Bu esa nafaqat o'quvchilarning individual

rivojlanishiga, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va ma’naviy yuksalishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Olweus D. Bullying at school: What we know and what we can do. – Oxford: Blackwell Publishing, 1993. – 140 p.
2. Dan Olweus Bullying at school: An overview // Journal of Adolescent Health. – 1994. – Vol. 16. – P. 117–127.
3. Albert Bandura Social learning theory. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1977. – 247 p.
4. Albert Bandura Aggression: A social learning analysis. – New York: Prentice Hall, 1973. – 390 p.
5. Robert Thornberg School bullying and moral disengagement // Journal of School Psychology. – 2015. – Vol. 53. – P. 99–112.

Yokubjanova Sevara Baxodir qizi

PhD student, Department of English and Literature, Namangan State Institute of Foreign Languages

ORCID ID: 0009-0000-0013-5341

PRESERVING THE AUTHOR'S INDIVIDUAL STYLE IN UZBEK TRANSLATION (BASED ON LEE KUAN YEW'S FROM THIRD WORLD TO FIRST)

Abstract: This article analyzes the issue of reflecting the author's voice and individual style from the original language in the Uzbek translation process. The analysis was conducted based on the work "From Third World to First: The Singapore Story" by Singapore's first Prime Minister, Lee Kuan Yew. This article analyzes the Uzbek translation of this fundamental work, focusing on how the linguistic structure and the author's individual style are reflected in the translation. The study employed descriptive-analytical, linguo-stylistic, discursive, and comparative translation studies (comparative) methods. It primarily relied on the functional-pragmatic (Skopos) methodology to conduct a deep analysis of the communicative purposes and stylistic tone of both the original and the translated texts. The analysis revealed that Lee Kuan Yew's technocratic and pragmatic style is distinguished by the active use of key terminology such as "discipline" and "grassroots leaders". The language of the work is rich in official-political and economic terms, and its syntactic structure is characterized by clarity and conciseness. The translator, Abdumajid Mamadaliyev, prioritized preserving the text's communicative intent (the purpose of giving advice and justification) over strict lexical accuracy. For instance, he achieved functional adequacy by translating the phrase "more rugged" as "serg'ayrat" (meaning 'full of vigor/hard-working/energetic'). In conclusion, although Lee Kuan Yew's firm, rational, and responsible leadership "voice" has been retained in the translation, the softening or shortening of certain legal and technical terminology has partially diminished the subtle details related to the text's rational-legal principles. Nevertheless, this translation fully conveys its value as an important practical lesson and an intellectual resource for Uzbekistan's modernization strategies.

Key words: Author's Style / Authorial Style, Lee Kuan Yew, Functional Adequacy, Lexical Equivalence, Extralinguistic Factors, comparative translation

Yoqubjonova Sevara Bahodir qizi

Namangan davlat chet tillari instituti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida Tayanch doktoranti

ORCID ID: 0009-0000-0013-5341

O‘ZBEK TARJIMASIDA MUALLIFNING INDIVIDUAL USLUBINI SAQLASH (LI KUAN YUNING “UCHINCHI DUNYODAN BIRINCHI DUNYOGA” ASARI ASOSIDA)

Annotatsiya: Ushbu maqolada asl tildagi muallif ovozi va individual uslubni o‘zbek tarjima jarayonida aks ettirish masalasi tahlil qilinadi. Tahlil Singapurning birinchi Bosh vaziri Li Kuan Yuning “Uchinchi dunyodan birinchi dunyoga: Singapur tarixi” asari asosida olib borildi. Mazkur maqolada ushbu fundamental asarning o‘zbekcha tarjimasi lingvistik tuzilma hamda muallifning individual uslubi tarjimada qanday ifodalanganiga alohida e’tibor qaratilgan holda tahlil qilinadi. Tadqiqotda tavsifiy-tahliliy, lingvostilistik, diskursiv va qiyosiy tarjimashunoslik metodlaridan foydalanildi. Asosiy metodologik tayanch sifatida original va tarjima matnlarining kommunikativ maqsadlari hamda uslubiy ohangini chuqur tahlil qilish uchun funksional-pragmatik (Skopos) yondashuv qo‘llanildi. Tahlil natijalari Li Kuan Yuning texnokratik va pragmatik uslubi “intizom” hamda “quyi bo‘g‘in yetakchilari” kabi asosiy terminlarning faol qo‘llanilishi bilan ajralib turishini ko‘rsatdi. Asar tili rasmiy-siyosiy va iqtisodiy terminlarga boy bo‘lib, uning sintaktik tuzilishi aniqlik va lo‘ndalik bilan tavsiflanadi. Tarjimon Abdumajid Mamadaliyev matnning kommunikativ maqsadini (maslahat berish va asoslash vazifasini) qat’iy leksik aniqlikdan ustun qo‘ygan. Masalan, u “more rugged” iborasini “serg’ayrat” deb tarjima qilish orqali funksional adekvatlikka erishgan. Xulosa qilib aytganda, tarjimada Li Kuan Yuning qat’iy, ratsional va mas’uliyatli yetakchilik “ovozi” saqlangan bo‘lsa-da, ayrim huquqiy va texnik terminlarning yumshatilishi yoki qisqartirilishi

matndagi ratsional-huquqiy tamoyillarga oid nozik jihatlarning qisman kamayishiga olib kelgan. Shunga qaramay, ushbu tarjima O‘zbekiston modernizatsiya strategiyalari uchun muhim amaliy saboq va intellektual manba sifatidagi qiymatini to‘liq yetkazadi.

Kalit so‘zlar: Muallif uslubi, individual uslub, Li Kuan Yu, funksional adekvatlik, leksik ekvivalentlik, ekstralingvistik omillar, qiyosiy tarjima

Ёкубжанова Севара Баходир кизи

PhD докторант, кафедра английского языка и литературы, Наманганский государственный институт иностранных языков
ORCID ID: 0009-0000-0013-5341

СОХРАНЕНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНОГО СТИЛЯ АВТОРА В УЗБЕКСКОМ ПЕРЕВОДЕ (НА ОСНОВЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ ЛИ КУАН Ю «ИЗ ТРЕТЬЕГО МИРА — В ПЕРВЫЙ»)

Аннотация: В данной статье анализируется проблема отражения авторского голоса и индивидуального стиля исходного текста в процессе узбекского перевода. Анализ проведён на основе произведения первого премьер-министра Сингапура Ли Куан Ю «Из третьего мира — в первый: история Сингапура». В статье особое внимание уделяется тому, как в узбекском переводе этого фундаментального труда отражены языковая структура и индивидуальный стиль автора. В исследовании использованы описательно-аналитический, лингвостилистический, дискурсивный и сравнительно-переводоведческий методы. В качестве основной методологической базы применён функционально-прагматический подход (Skoros), позволивший глубоко проанализировать коммуникативные цели и стилистическую тональность оригинального и переводного текстов. Результаты анализа показали, что технократический и прагматический стиль Ли Куан Ю отличается активным использованием ключевой терминологии, такой как «дисциплина» и «лидеры низового уровня». Язык произведения богат официально-политическими и экономическими терминами, а его синтаксическая структура характеризуется ясностью и лаконичностью. Переводчик Абдумаджид Мамадалиев отдал приоритет сохранению коммуникативного замысла текста (цели наставления и обоснования) над строгой лексической точностью. Например, перевод выражения «more rugged» как «энергичный» обеспечил функциональную адекватность. В заключение следует отметить, что твёрдый, рациональный и ответственный лидерский «голос» Ли Куан Ю в переводе в целом сохранён, однако смягчение или сокращение некоторых юридических и технических терминов частично ослабило тонкие детали, связанные с рационально-правовыми принципами текста. Тем не менее данный перевод в полной мере передаёт свою ценность как важный практический урок и интеллектуальный ресурс для стратегий модернизации Узбекистана.

Ключевые слова: Авторский стиль, индивидуальный стиль, Ли Куан Ю, функциональная адекватность, лексическая эквивалентность, экстралингвистические факторы, сравнительный перевод

Introduction. Lee Kuan Yew (1923–2015) was a politician, statesman, and strategic thinker who left an indelible mark on 20th-century Asian history. From 1959 to 1990, he served as the Prime Minister of Singapore, successfully transforming the country from a poor island state, devoid of natural resources, into one of the world’s most developed nations. From the beginning of his political career, Lee Kuan Yew advocated for synthesizing Eastern and Western values and turning discipline and hard work into state policy. His governance style is distinguished by firmness, responsibility, and a pragmatic approach. For this reason, he is acknowledged as the "Father of Modern Singapore." Lee Kuan Yew was recognized not only as a politician but also as an author who documented the history of his people throughout his career. He wrote *From Third World to First: The Singapore Story* (1965–2000) with the goal of documenting the complex political processes surrounding Singapore's independence for future generations. Indeed, the author himself states on this matter: "I wrote this

book for a younger generation of Singaporeans who took stability, growth, and prosperity for granted. I wanted them to know how difficult it was for a small country of 640 sq. km with no natural resources to survive in the midst of larger, newly independent nations all pursuing nationalistic policies." [6]

The book covers the historical events of Singapore from its separation from Malaysia and subsequent independence in 1965 up to the year 2000. In his memoirs, Lee Kuan Yew illuminates not only political decisions but also human emotions, the hopes, and the fears of the nation. The author calls upon his people to unite based on the values of "a corruption-free society, social cohesion, honesty, and diligence." In this respect, the work is highly valued as a memoir, a historical source, and a political textbook. The "Singapore Story" is one of the unique sources analyzing the geopolitical changes that occurred in the Southeast Asian region during the second half of the 20th century. It extensively covers crucial issues such as inter-ethnic conflicts in the Malay Peninsula, British colonial policy, and the struggle between Soviet and Western ideologies. The book portrays Singapore's path to independence not merely as a political process, but as a journey toward national self-awareness and the formation of a new civic spirit.

The publication of this work in the Uzbek language is not merely a literary event, but rather emerges as an important intellectual resource in defining Uzbekistan's socio-economic modernization strategies. The Singapore model, particularly concerning governance effectiveness, anti-corruption efforts, and mechanisms for economic growth, is highly relevant to Uzbekistan's current political and intellectual discourse. This serious publication, carried out by the translator Abdumajid Mamadaliyev, demands that it be viewed not just as a cultural product, but also as a fundamental tool influencing government policy and the formation of the intellectual elite. The terminology introduced through this work serves to shape a new vocabulary related to international politics and economics in Uzbekistan. "Lee Kuan Yew's memoir not only provides historical information but also presents a rational, and sometimes authoritarian, philosophy of state governance." [2]

Materials. Lee Kuan Yew's political speeches and written works have consistently attracted the attention of linguists and political scientists. P. Chew analyzed this memoir from the perspective of "language policy and language management" [4], determining that political pragmatism and a technocratic approach serve as the central themes. Y. Chia [5], S. Chan, and T. Chong's studies illuminate the "links between leadership language and leadership discourse in Southeast Asia" [3], comparing Lee Kuan Yew's discourse with that of other regional leaders. L. Tan and Z. Lim [9], on the other hand, focus on the role of narrative structures in the formation of Singapore's political identity. A study conducted by Y. Zhai et al. describes Lee Kuan Yew's political style through the model of an "iron fist in a velvet glove" [14]. This metaphor signifies a softer approach aimed at maintaining social stability alongside firmness in leadership. E. Wong [12] analyzes Lee Kuan Yew's diplomatic activities, studying the linguistic tools used in his international speeches and meetings. Finally, M. Goh's article [6] highlights the role of economic discourse and economic terminologies in state strategy.

Methods. In this study, the following methods were applied:

- Descriptive-Analytical Method: Used for analyzing the lexical choices, grammatical, and syntactic structures of both the author and the translator.
- Linguo-Stylistic Method: Employed in the analysis of the author's individual writing style and the shifts between formal and personal styles.
- Discursive Method: Applied to analyze cause-and-effect relationships, the justification of political decisions, and leadership positions.
- Comparative Translation Studies (Comparative) Method: Utilized for comparing the original English text with its Uzbek translation.

A qualitative approach is dominant in the article. The analysis primarily relied on the functional-pragmatic (Skopos) methodology to examine the communicative purpose, stylistic tone, discursive characteristics, and the individual styles of both the author and the translator in the original and translated texts.

Results. Lee Kuan Yew's characteristic technocratic and pragmatic (experience-based) style is evident in his active use of terms such as "discipline," "survival," "Asian values," "grassroots leaders," and other terminology related to corruption and economic crimes.

The main aspects of the linguistic structure of the memoir, *The Singapore Story*, are as follows:

1. Lexical (Vocabulary) Features:

- Official-Political Terminology is widely used, including terms like: *democracy, independence, state governance, meritocracy, national security, etc.*
- Lexical choices are often precise, concise, and direct, serving an analytical rather than emotional purpose.
- Technical and Economic Terms are also frequently utilized: *GDP, foreign investment, infrastructure, corruption, and others.*

2. Grammatical and Syntactic Structure:

- Most sentences have a complex structure—ideas are consistently developed through compound and subordinate clauses.
- Verbs are predominantly used in the past tense, which is characteristic of the memoir genre.
- The frequent use of personal pronouns (*I, we*) strengthens the first-person authoritative position.

3. Stylistic Features:

- The text is written in a formal style, though some sections employ a simpler, more personal tone to ensure closer rapport with the reader.
- Rhetorical devices are sparse, but methods of contrast and comparison are sometimes used (e.g., describing Singapore's state before and after independence).

The translator, A. Mamadaliyev, maintained the logical flow and clarity of the text due to his experience working with expository (explanatory) texts. The translator prioritized functional adequacy and preserving the text's communicative intent (Lee Kuan Yew's purpose of justifying his decisions and offering advice) over strict lexical accuracy.

Annotatsiya. Mazkur maqola ijtimoiy tarmoqlarning o'spirinlar psixikasiga ko'rsatadigan ta'sirini tizimli va kompleks yondashuv asosida o'rganishga bag'ishlangan. Zamonaviy raqamli muhitda ijtimoiy tarmoqlar o'spirinlar hayotining ajralmas qismiga aylanib, ularning kundalik faoliyati, muloqot uslubi, dunyoqarashi va psixologik rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, ushbu jarayonni ilmiy asosda tahlil qilish dolzarb muammo sifatida qaralgan. Maqolada o'smirlik davrining asosiy psixologik xususiyatlari — identitet shakllanishi, o'zini anglash, o'z-o'zini baholash, emotsional barqarorlik va ijtimoiy moslashuv jarayonlari ijtimoiy tarmoqlar bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qilingan. Xususan, virtual makonda shakllanayotgan “ideal obrazlar”, ijtimoiy taqqoslash mexanizmi va tashqi baholarga qaramlik o'smirlarning o'ziga bo'lgan munosabatiga sezilarli darajada ta'sir etishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Ilmiy kuzatuvlar va psixologik tadqiqotlar asosida aniqlanishicha, nazoratsiz va me'yoridan ortiq foydalanish o'smirlarning ruhiy barqarorligini izdan chiqarishi, o'ziga ishonch darajasini pasaytirishi va ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklar keltirib chiqarishi mumkin.

Kalit so'zlar. O'spirinlik davri, psixik rivojlanish, identitet shakllanishi, affektiv holatlar, ijtimoiy taqqoslash, virtual identitet, internet qaramligi, kiberbulling, emotsional intellekt.

Ахмедова Заррина Джамилевна

Преподаватель кафедры психологии Бухарский государственный университет Доктор философии (PhD) по психологии

Нарзуллоева Жасмина Джурабековна

Студентка направления «Психология» Бухарский государственный университет

ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ НА ПСИХИКУ ПОДРОСТКОВ И ЕГО ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ

Аннотация. Данная статья посвящена изучению влияния социальных сетей на психику подростков на основе системного и комплексного подхода. В условиях современной цифровой среды социальные сети стали неотъемлемой частью жизни подростков, оказывая непосредственное влияние на их повседневную деятельность, стиль общения, мировоззрение и психологическое развитие. С этой точки зрения анализ данного процесса на научной основе рассматривается как актуальная проблема. В статье проанализированы основные психологические особенности подросткового возраста — формирование идентичности, самосознание, самооценка, эмоциональная устойчивость и процессы социальной адаптации — в тесной взаимосвязи с социальными сетями. В частности, научно обосновано, что формирующиеся в виртуальном пространстве «идеальные образы», механизм социального сравнения и зависимость от внешних оценок оказывают значительное влияние на отношение подростков к самим себе. На основе научных наблюдений и психологических исследований установлено, что неконтролируемое и чрезмерное использование социальных сетей может нарушать психическую устойчивость подростков, снижать уровень уверенности в себе и вызывать трудности в социальной адаптации.

Ключевые слова: подростковый период, психическое развитие, формирование идентичности, аффективные состояния, социальное сравнение, виртуальная идентичность, интернет-зависимость, кибербуллинг, эмоциональный интеллект.

Ahmedova Zarrina Jamilovna

Lecturer, Department of Psychology Bukhara State University PhD in Psychology

Narzulloyeva Jasmina Jo'rabek qizi

Student, Psychology Program Bukhara State University

THE IMPACT OF SOCIAL NETWORKS ON ADOLESCENT PSYCHIC HEALTH AND ITS PSYCHOLOGICAL ASPECTS

Abstract. *This article is devoted to studying the impact of social networks on adolescents' psyche based on a systematic and comprehensive approach. In the modern digital environment, social media has become an integral part of adolescents' lives, directly influencing their daily activities, communication styles, worldview, and psychological development. From this perspective, analyzing this process on a scientific basis is considered a relevant issue. The article examines the main psychological characteristics of adolescence — identity formation, self-awareness, self-esteem, emotional stability, and social adaptation — in close connection with social media. In particular, the formation of "ideal images" in the virtual space, the mechanism of social comparison, and dependence on external evaluations are scientifically proven to have a significant impact on adolescents' self-perception. Based on scientific observations and psychological research, it has been found that uncontrolled and excessive use of social media can negatively affect adolescents' mental stability, reduce their level of self-confidence, and create difficulties in social adaptation.*

Keywords. *adolescence, psychological development, identity formation, affective states, social comparison, virtual identity, internet addiction, cyberbullying, emotional intelligence.*

Kirish. Inson ontogenezining eng dinamik va ziddiyatli davri hisoblangan o'spirinlik bosqichi o'zining psixofiziologik transformatsiyalari, emotsional labilligi hamda ijtimoiy adaptatsiya jarayonlarining murakkabligi bilan xarakterlanadi. Bugungi globalashuv va axborotlashgan jamiyat sharoitida ijtimoiy tarmoqlar; instagram, tik-tok, telegram o'spirinlar uchun shunchaki muloqot vositasi bo'lmay, balki ularning shaxsiy identivligi shakllanadigan, ijtimoiy rollar sinab ko'riladigan va dunyoqarash modellari barpo etiladigan virtual ekotizimga aylandi. Ushbu makon o'spirin psixikasiga ham konstruktiv, ham destruktiv ta'sir ko'rsatuvchi dominant determinant sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mavzuning bugungi kundagi dolzarbligi shundaki, o'spirin yoshidagi shaxslarda o'z-o'zini anglash va ijtimoiy e'tirofqa bo'lgan ehtiyojning yuqoriligi ularni virtual muhitdagi subyektiv reallikka oson bog'lab qo'ymoqda. Ilmiy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlardagi "mukofotlash tizimi" (layklar, ijobiy izohlar, virtual reytinglar) o'spirinlar miyasidagi neyrokimyoviy jarayonlarga, xususan, dofaminergiya tizimiga bevosita ta'sir o'tkazadi. Bu esa real hayotdagi mantiqiy yutuqlardan ko'ra, tezkor virtual e'tirofqa intilish fenomenini — "kiber-bog'liqlik"ni keltirib chiqarmoqda. Natijada, o'spirin shaxsida real "Men" va virtual "Men" obrazlari o'rtasida kognitiv dissonans (ichki ziddiyat) yuzaga kelib, bu emotsional sohada frustratsiya, xavotirlik va o'z-o'zini baholashning pasayishiga zamin yaratmoqda.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarning o'spirinlar ruhiyatiga ta'siri ularning kognitiv sohasida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Axborotning haddan tashqari ko'pligi va uning qisqa, fragmentar shaklda uzatilishi o'spirinlarda "klip mantiqi" shakllanishiga, diqqat konsentratsiyasining susayishiga va tahliliy mushohada yuritish qobiliyatining sayozlashishiga olib kelmoqda. Jahon miqyosida va mamlakatimizda o'tkazilayotgan psixologik tadqiqotlar ijtimoiy tarmoqlarning o'spirinlar sotsializatsiyasidagi o'rini fundamental o'rganish, raqamli muhitda ruhiy barqarorlikni ta'minlash va kiber-psixologik immunitetni shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqishni kechiktirib bo'lmaz vazifa qilib qo'ymoqda. Aynan shu omillar ushbu maqolaning ilmiy mazmuni va amaliy yo'nalishini belgilab beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Mazkur mavzu zamonaviy psixologiya, pedagogika va sotsiologiya fanlarining kesishgan nuqtasida joylashgan bo'lib, so'nggi yillarda ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng o'rganilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarning o'spirinlar psixikasiga ta'siri masalasida olib borilgan tadqiqotlar turli nazariy yondashuvlar va empirik kuzatishlarga

asoslanadi. rivojlanish psixologiyasi doirasida olib borilgan tadqiqotlarda o‘spirinlik davri shaxsiy identitet shakllanishi, o‘z-o‘zini baholash va ijtimoiy taqqoslash jarayonlari bilan bog‘liq ekani ta’kidlanadi. Ijtimoiy tarmoqlar aynan shu jarayonlarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayrim tadqiqotchilar bu jarayonni “virtual identitet” tushunchasi orqali izohlab, real va virtual “men” o‘rtasidagi tafovut psixologik dissonansga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatadilar. Shuningdek, ilmiy manbalarda ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy va salbiy ta’sirlari muvozanatda o‘rganilgan. Ijobiy jihatlar sifatida kommunikativ imkoniyatlarning kengayishi, axborotga tezkor kirish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimining shakllanishi keltirilgan. Biroq salbiy ta’sirlar qatorida internet qaramligi, kiberbulling, o‘z-o‘zini past baholash, xavotir va depressiv holatlarning ortishi alohida qayd etilgan. Ko‘plab empirik tadqiqotlar ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkaziladigan vaqt miqdori bilan psixologik salomatlik o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi.

Albert Bandura XX asr psixologiyasida muhim o‘rin egallagan olimlardan biri bo‘lib, u ijtimoiy o‘rganish nazariyasini ishlab chiqqan. Ushbu nazariyaga ko‘ra, inson xulq-atvori faqat bevosita tajriba orqali emas, balki boshqalarni kuzatish, ularning harakatlarini tahlil qilish va taqlid qilish orqali ham shakllanadi.

Bandura o‘zining mashhur “Bobo doll” tajribasi orqali bolalar va o‘spirinlar agressiv xulqni kuzatish orqali o‘rganishini ilmiy asoslab bergan. Tajriba natijalariga ko‘ra, agar bola agressiv modelni ko‘rsa, u ham shunday xatti-harakatni takrorlash ehtimoli yuqori bo‘ladi.

Ijtimoiy tarmoqlar kontekstida Bandura nazariyasi quyidagicha izohlanadi:

O‘spirinlar ijtimoiy tarmoqlarda ko‘plab “model”larni blogerlar, mashhurlar, tengdoshlar kuzatadi.

Ular ko‘rgan xulq-atvor (masalan, hayot tarzi, tashqi ko‘rinish, muomala uslubi)ni ongli yoki ongsiz ravishda o‘zlashtiradi.

Agar ushbu xulq ijtimoiy jihatdan “muvaffaqiyatli” layklar, obunachilar, mashhurlik deb baholansa, uni takrorlash ehtimoli yanada ortadi.

Bandura shuningdek o‘z-o‘zini samaradorlik tushunchasini ham kiritgan. Bu tushuncha shaxsning o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchini anglatadi. Ijtimoiy tarmoqlarda boshqalar bilan doimiy taqqoslash natijasida o‘spirinlarda o‘z-o‘zini baholash pasayishi yoki aksincha, motivatsiya oshishi mumkin.

Leon Festinger psixologiyada ijtimoiy taqqoslash nazariyasi asoschisi sifatida tanilgan. Ushbu nazariyaga ko‘ra, inson o‘zini baholash uchun boshqalar bilan solishtirishga intiladi. Bu jarayon ayniqsa o‘spirinlik davrida kuchli namoyon bo‘ladi, chunki bu davrda shaxs o‘z identitetini shakllantirish bosqichida bo‘ladi.

Festinger ta’kidlashicha, insonlar ikki turdagi taqqoslashni amalga oshiradi:

Yuqoriga qarab taqqoslash – o‘zidan muvaffaqiyatli yoki chiroyliroq insonlar bilan solishtirish

Pastga qarab taqqoslash – o‘zidan kamroq muvaffaqiyatli insonlar bilan solishtirish

Ijtimoiy tarmoqlar aynan yuqoriga qarab taqqoslashni kuchaytiradi, chunki u yerda odatda insonlarning “eng yaxshi” hayotiy lavhalari namoyish etiladi.

Natijada quyidagi psixologik holatlar yuzaga kelishi mumkin:

O‘z-o‘zini past baholash

Tashqi ko‘rinishdan qoniqmaslik

Depressiv kayfiyat va xavotir

“Ideal hayot”ga yetolmaslik hissi

Festingning yana bir muhim g‘oyasi — kognitiv dissonans tushunchasidir. Bu insonning fikrlari, e’tiqodlari va xatti-harakatlari o‘rtasida nomuvofiqlik yuzaga kelganda paydo bo‘ladigan ichki noqulaylik holatidir. Ijtimoiy tarmoqlarda o‘spirin o‘z real hayoti bilan virtual obrazlar o‘rtasidagi tafovutni sezganda, aynan shu dissonans yuzaga keladi.

B. Qodirov o‘zbek psixologiyasida yoshlar psixologiyasi, shaxs rivojlanishi va ijtimoiy muhitning xulq-atvoriga ta’siri masalalarini o‘rgangan olimlardan biridir. Uning tadqiqotlarida ayniqsa o‘quvchi-yoshlarning psixologik xususiyatlari va zamonaviy axborot muhitining ularga ko‘rsatadigan ta’siri alohida o‘rin egallaydi. Qodirovning ilmiy qarashlariga ko‘ra, o‘spirinlik davri — bu shaxsda mustaqil fikrlash, ijtimoiy pozitsiya va xulq-atvor stereotiplari shakllanadigan muhim

bosqichdir. Shu davrda tashqi muhit, ayniqsa axborot manbalari (internet, ijtimoiy tarmoqlar) o‘spirinning psixikasiga kuchli ta‘sir ko‘rsatadi. U ijtimoiy tarmoqlarni “ikkilamchi ijtimoiylashuv vositasi” sifatida baholaydi, ya‘ni o‘spirinlar real muhitdan tashqari virtual muhit orqali ham ijtimoiy tajriba orttiradi.

Olimning tadqiqotlarida quyidagi jihatlar alohida ta‘kidlanadi:

Nazoratsiz va me‘yoridan ortiq internetdan foydalanish o‘spirinlarda diqqatning tarqoqlashuvi, mas‘uliyat hissining pasayishi va ijtimoiy passivlikni keltirib chiqarishi mumkin.

Virtual muloqot real kommunikatsiya ko‘nikmalarining sustlashishiga olib keladi.

Internet orqali tarqaladigan salbiy kontent (agressiya, zo‘ravonlik, noto‘g‘ri qadriyatlar) o‘spirin xulq-atvoriga bevosita ta‘sir qiladi.

N. Karimova yoshlar psixologiyasi, ijtimoiylashuv jarayoni va shaxsning ijtimoiy muhitga moslashuvi masalalarini tadqiq qilgan olimlardan hisoblanadi. Uning ishlarida zamonaviy jamiyatda o‘spirinlarning rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillar, xususan, axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlarning roli keng yoritilgan. Karimova ijtimoiylashuvni ikki asosiy muhit — real va virtual makon orqali kechadigan jarayon sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, bugungi kunda o‘spirinlar faqat oila va maktab orqali emas, balki ijtimoiy tarmoqlar orqali ham ijtimoiy tajriba orttiradi. Bu esa shaxs shakllanishida yangi psixologik omillar paydo bo‘lishiga olib keladi.

Karimovanning tadqiqotlarida quyidagi muhim jihatlar ajratib ko‘rsatiladi:

Ijtimoiy tarmoqlar o‘spirinlarda virtual identitet shakllanishiga sabab bo‘ladi. Bu esa ba‘zan real “men” bilan ziddiyatga kirishi mumkin.

O‘spirinlar o‘zlarini boshqalar bilan taqqoslash orqali o‘z-o‘zini baholashni shakllantiradi, bu jarayon esa ko‘pincha emotsional beqarorlikni yuzaga keltiradi.

Kiberbulling va salbiy axborotlar o‘spirinlarning ruhiy holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi, ayniqsa o‘ziga ishonchi past bo‘lgan yoshlar bunga ko‘proq moyil bo‘ladi.

Muhokama. Mazkur tadqiqot natijalari ijtimoiy tarmoqlarning o‘spirinlar psixikasiga ta‘siri murakkab, ko‘p omilli va ziddiyatli xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi. O‘spirinlik davri psixologik jihatdan eng sezgir bosqichlardan biri bo‘lib, bu davrda shaxsning o‘z-o‘zini anglash, identitet shakllanishi va ijtimoiy moslashuvi faol kechadi. Aynan shu jarayonlar ijtimoiy tarmoqlar ta‘sirida sezilarli darajada o‘zgarishga uchrashi mumkin. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlar o‘spirinlar uchun muhim kommunikativ platforma sifatida xizmat qiladi. Ular orqali yoshlar o‘z fikrini erkin ifodalash, tengdoshlar bilan aloqalarni mustahkamlash va yangi ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirish imkoniga ega bo‘ladi. Bu esa ijtimoiylashuv jarayonini tezlashtiradi. Shu bilan birga, virtual muhitning kengayishi real ijtimoiy aloqalarning qisqarishiga olib kelishi mumkin. Natijada o‘spirinlarda yuzma-yuz muloqot ko‘nikmalari yetarlicha rivojlanmasligi kuzatiladi.

Psixologik nuqtai nazardan qaraganda, ijtimoiy tarmoqlarning eng muhim ta‘sir mexanizmlaridan biri — bu ijtimoiy taqqoslash jarayonidir. O‘spirinlar o‘zlarini boshqalar bilan muntazam solishtirish orqali o‘z-o‘zini baholash tizimini shakllantiradi. Biroq ijtimoiy tarmoqlarda aks etadigan hayot ko‘pincha idealizatsiyalangan bo‘lib, real hayotdan sezilarli darajada farq qiladi. Bu esa o‘spirinlarda qoniqmaslik hissi, o‘ziga nisbatan ishonchsizlik va emotsional beqarorlikni yuzaga keltiradi. Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat — bu ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish darajasi va uning psixologik ta‘siri o‘rtasidagi bog‘liqlikdir. Me‘yoriy va maqsadli foydalanish ijobiy natijalar berishi mumkin bo‘lsa, ortiqcha va nazoratsiz foydalanish salbiy oqibatlarga olib keladi. Shu sababli, foydalanish davomiyligi, mazmuni va maqsadi asosiy determinant omillar sifatida qaraladi.

Yuqoridagi tahlillar asosida shuni ta‘kidlash mumkinki, ijtimoiy tarmoqlarning o‘spirinlar psixikasiga ta‘siri bir yoqlama emas, balki ko‘p qirrali va murakkab jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonni samarali boshqarish uchun kompleks yondashuv zarur bo‘lib, unda oila, ta‘lim tizimi va jamiyatning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, o‘spirinlarda media savodxonlik, tanqidiy fikrlash va o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifa sifatida qaraladi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalari ijtimoiy tarmoqlar o‘spirinlar psixikasiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. O‘spirinlik davrida shaxsning identiteti, o‘z-o‘zini baholash tizimi va

ijtimoiy xulq-atvori shakllanish jarayonida bo‘lgani sababli, raqamli muhit ushbu jarayonlarning yo‘nalishiga bevosita ta‘sir qiladi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ijtimoiy tarmoqlarning ta‘siri to‘g‘ridan-to‘g‘ri ularning qo‘llanish darajasi, mazmuni va ijtimoiy muhit bilan bog‘liq. Nazorat ostidagi va maqsadli foydalanish ijobiy natijalarni yuzaga keltirsa, tartibsiz va haddan tashqari foydalanish salbiy psixologik oqibatlarni kuchaytiradi.

Shu asosda xulosa qilish mumkinki, o‘spirinlarda ijtimoiy tarmoqlardan ongli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning media savodxonligini oshirish hamda oila va ta‘lim muassasalari tomonidan yo‘naltiruvchi muhit yaratish muhim ahamiyatga ega. Mazkur choralar ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta‘sirini kamaytirish va ijobiy imkoniyatlaridan samarali foydalanishni ta‘minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Bandura A. Social Learning Theory. – New York: General Learning Press, 1977.
2. Festinger L. A Theory of Social Comparison Processes // Human Relations. – 1954. – Vol. 7. – P. 117–140.
3. Qodirov B. Yoshlar psixologiyasi va tarbiya muammolari. – Toshkent: Fan, 2015.
4. Karimova N. Yoshlar ijtimoiylashuvi va zamonaviy axborot muhitining ta‘siri. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2018.
5. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ongiga ta‘siri // Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2020.

Казаков Мухриддин Хошим угли

*практический психолог средней общеобразовательной школы №6, подведомственной отделу
школьного и дошкольного образования Жондорского района*

ФОРМИРОВАНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СОТРУДНИКОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

Аннотация. В данной статье проведено исследование формирования социально-психологической компетентности у сотрудников внутренних дел и путей ее развития. Кроме того, разработаны структура и содержание социально-психологической компетентности сотрудников внутренних дел, критерии и показатели ее зрелости. В нем также говорится о том, что в органах внутренних дел осуществляется процесс формирования социально-психологической компетентности специалистов.

Ключевые слова: компетентность, индивидуальность, юность, зрелость, педагогические условия, темперамент, социологическое исследование, мотивация, социально-психологические процессы, эмоция, темперамент.

Qazoqov Mukhriddin Hoshim o'g'li

*Practical Psychologist of Secondary School No. 6 under the Jondor District Department of School
and Preschool Education*

DEVELOPING SOCIO-PSYCHOLOGICAL COMPETENCE IN INTERNAL AFFAIRS PERSONNEL

Annotation. This article explores the formation of socio-psychological competence in internal affairs personnel and the ways of its development. In addition, the structure and content of socio-psychological competence of internal affairs personnel, its criteria and indicators of maturity are developed. Also, the internal affairs bodies talk about the fact that the process of forming a socio-psychological competence of specialists is carried out by experimental work.

Key words: competence, individuality, adolescence, maturity, pedagogical conditions, temperament, sociological research, motivation, social psychological processes, emotion, temperament.

Qazoqov Muxriddin Hoshim o'g'li

*Jondor tumani maktab va maktabgacha ta'lim bo'limiga qarashli 6-sonli umumta'lim maktabi
amalyotchi psixologi*

ICHKI ISHLAR XODIMLARIDA IJTIMOY-PSIXOLOGIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada ichki ishlar xodimlarida ijtimoiy-psixologik kompetentlikni shakllantirish va uni rivojlantirish yo'llari tadqiq etilgan. Shuningdek, ichki ishlar xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligining tuzilmasi va mazmuni, uning yetuklik mezonlari hamda ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan. Maqolada, shuningdek, ichki ishlar organlarida mutaxassislarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini shakllantirish jarayoni amalga oshirilishi haqida ham so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: kompetentlik, individuallik, o'smirlilik, yetuklik, pedagogik shart-sharoitlar, temperament, sotsiologik tadqiqot, motivatsiya, ijtimoiy-psixologik jarayonlar, emotsiya, temperament.

Термины «компетенция» и «компетентность» в последнее время часто используются в исследованиях, посвященных воспитанию и обучению в университетах. В то же время анализ понятий по этой проблеме показывает всю сложность, многосторонность и неточность трактовки самих понятий «компетенция» и «компетентность». Согласно определению, приведенному в толковом словаре Д. Н. Ушакова, компетенция - круг полномочий, область

подлежащих чему-нибудь ведению. Аналогично под компетенцией государственной власти и управления понимается система общих прав и обязанностей, которыми законодатель наделяет представительные учреждения, администрацию рассматриваемого звена для реализации управленческих функций в отношении подконтрольных охраняемых интересов. Таким образом, профессиональная компетенция (принадлежность по праву) - круг вопросов, решение которых входит в обязанности сотрудников. Г. С. Никифоров предложил рассматривать компетентность в широком (как степень общественной зрелости и образованности всех людей) и узком (как знания и умения) смысле слова. В широком смысле слова компетентность может быть рассмотрена с трех сторон: 1) как методологический принцип; 2) как форма проявления сознательной общественной активности; 3) как элемент социальной роли. Наиболее распространенными являются следующие определения компетентности: Компетентность является одним из компонентов личности или совокупностью известных ее свойств, обуславливающих успех в решении определенного круга задач. Компетентность находит отражение в количестве и качестве управленческих задач, сформулированных и решенных сотрудниками. Компетентность выражает интеллектуальное соответствие сотрудников тем задачам, решение которых обязательно для работающих на этих должностях людей. Компетентность является одним из свойств, проявления личности и заключается в эффективности решения проблем, встречающихся в сфере деятельности человека и осуществляемых в интересах данной организации. Социально-психологическая компетентность сотрудников рассматривается как определенный уровень развития их коммуникативных качеств, способность к адекватному межличностному восприятию и взаимодействию, умение предупреждать и разрешать конфликты.

Социально-психологическая компетентность сотрудников, реализующая в конкретной профессиональной деятельности, соотносится со степенью развития служебного коллектива и характеризуется определенным уровнем адаптации сотрудников к заданной социальной роли (уровнем социальной компетентности). Социально-психологическая компетентность сотрудников в ее конкретной, продуктивной форме базируется не только на особенностях личности, но и на специфике их взаимодействия с гражданами, обусловленной обстоятельствами профессиональной деятельности и поглощающей как обстоятельства межличностного взаимодействия, так и возможности самой личности. Она проявляется в восприятии и понимании сотрудниками в обращении и отношениях с окружающими, в глубине их психологического включения как в предметную, профессиональную, так и в коммуникативную деятельность, психологическую атмосферу, характеризующую состояние их межличностных отношений в коллективе и удовлетворенности результатами деятельности. Социально-психологическая компетентность сотрудников находит выражение в их профессиональной готовности осознанно, своевременно и творчески решать многообразные задачи, вытекающие из динамических условий управленческой ситуации. Успешность выполнения сотрудниками столь сложных функциональных обязанностей находятся в прямой зависимости от их подготовленности к деятельности, в том числе и от уровня социально-психологической компетентности. Таким образом, деятельность сотрудников реализуется в условиях тесного взаимодействия с различными субъектами общественных процессов, общения с различными категориями граждан. Обеспечение эффективности в общении предъявляет высокие требования к личностным и деловым качествам сотрудников, их социально-психологической компетентности.

Научная новизна выбранной темы состоит в следующем:

Доказано, что уровень социально-психологической компетентности в рамках структурно-личностного компонента определяется профессиональной ориентацией и мотивацией совершенствования личности, а в рамках функционально - личностного компонента - формированием личности. Коммуникативные способности сотрудников ОВД: гностические, проектные, конструктивные, организационные, речевые коммуникативные, позволяющие прогнозировать успешность взаимодействия молодых руководителей с

подчиненными и возможности развития и повышения уровня социально-психологической компетентности.

Установлено, что социально-психологическая компетентность сотрудников органов внутренних дел формируется в процессе решения трех видов социально-психологических задач: наблюдения и оценки социально-психологической ситуации в ходе совместной трудовой деятельности; побуждения участников взаимодействия к выполнению определенных задач; установления необходимых взаимоотношений между подчиненными. Тип задачи определяется ситуацией, основной мотив - успешное выполнение задач, стоящих перед организацией, цель - новые знания и изменившееся отношение подчиненных, наблюдаемый результат - действия подчиненных, направленные на выполнение функциональных обязанностей, и специфика задачи совместной деятельности. Это позволяет разработать алгоритм решения социально-психологической задачи и систему подготовки сотрудников органов внутренних дел к решению социально-психологических задач.

Заключение

Поскольку с социально-психологической точки зрения руководство можно определить как совокупность методов социально-психологического воздействия, используемых для интеграции и дифференциации групповой деятельности и общения людей с целью достижения максимального эффекта в этой совместной деятельности, то социально-психологическую компетентность руководителя можно определить как его способность организовывать эффективное взаимодействие с подчиненными в системе деловых и личностных отношений. Поэтому социально-психологическая компетентность руководителя, рассматривая как психологический феномен, при ее максимальном проявлении может стать ключевой составляющей в решении проблемы оптимизации совместной деятельности в рамках как психологии управления и социальной педагогики, так и социальной психологии.

Социально-психологическая компетентность молодого руководителя является составной частью его социально-психологической культуры, которую обозначают как характеристику способов реализации человеком своего потенциала и удовлетворения своих потребно

Литература:

1. Емельянов, Ю. Н. Активное социально-психологическое обучение.— Л.: ЛГУ, 1985. — 166 с.
2. Жуков, Ю. М. Петровская Л. А. Диагностика и развитие компетентности в общении. — М.: МГУ, 1990. — 104 с.
3. Зеер, Э. Ф. Психология профессионального развития / Э. Ф. Зеер, — 3-е изд., стер. — М.: Академия, 2009—240 с.
4. Никифоров, Г. С. Компетентность и ее значение в управлении производством // Вестник МГУ сер.13 «Теории научного коммунизма» № 3, с 3–9.

Saidova Rayhona Amon qizi

*Buxoro Davlat Universiteti Tarix va Yuridek fakulteti
Psixologiya ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak pedagoglarda kasbiy faoliyat samaradorligini oshirishning psixologik jihatlari o'rganilgan. Pedagoglarning ishga bo'lgan motivatsiyasi, shaxsiy xususiyatlari, emotsional barqarorligi va ijtimoiy ko'nikmalari samaradorlikni belgilovchi asosiy omillar sifatida tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari pedagoglarni psixologik tayyorlash va ularning kasbiy malakasini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: emotsional barqarorlik, kasbiy samaradorlik, motivatsiya, pedagog, psixologik tayyorgarlik.

Саидова Райхона Амон кизи

*Студентка 2 курса направления «Психология» Историко-юридического факультета
Бухарского государственного университета*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Аннотация. В статье рассматриваются психологические аспекты повышения профессиональной эффективности будущих педагогов. Анализируются основные факторы, влияющие на эффективность работы педагогов, такие как мотивация, личностные качества, эмоциональная устойчивость и социальные навыки. Результаты исследования помогают разрабатывать рекомендации по психологической подготовке и профессиональному развитию педагогов.

Ключевые слова: эмоциональная устойчивость, профессиональная эффективность, мотивация, педагог, психологическая подготовка.

Saidova Rayhona Amon qizi

2nd-year student of the Psychology program Faculty of History and Law Bukhara State University

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF IMPROVING THE PROFESSIONAL EFFICIENCY OF FUTURE TEACHERS

Abstract. The article examines the psychological aspects of enhancing professional efficiency among future educators. The study analyzes key factors influencing teachers' effectiveness, including motivation, personal characteristics, emotional stability, and social skills. The results provide recommendations for psychological preparation and professional development of educators.

Keywords: emotional stability, professional efficiency, motivation, teacher, psychological preparation.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda bo'lajak pedagoglarning kasbiy faoliyat samaradorligini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Pedagog shaxsining kasbiy yetukligi nafaqat bilim va malakalarga, balki uning psixologik

tayyorgarligi, motivatsiyasi, emotsional barqarorligi hamda muloqotga kirishish qobiliyatiga ham bevosita bog'liqdir.

Zamonaviy pedagogdan o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish, ta'lim jarayonini psixologik jihatdan to'g'ri tashkil etish, stressli vaziyatlarda o'zini boshqara olish va reflektiv fikrlash talab etiladi. Shu bois bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy faoliyat samaradorligini ta'minlovchi psixologik omillarni aniqlash va rivojlantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarining muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Mazkur maqolada bo'lajak pedagoglarda kasbiy faoliyat samaradorligini oshirishning psixologik jihatlari, xususan, kasbiy motivatsiya, shaxsiy rivojlanish, emotsional barqarorlik va muloqot kompetensiyalarining o'rnini tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Bo'lajak pedagoglarning kasbiy faoliyat samaradorligini oshirish mavzusi pedagogika va psixologiya sohalarida keng o'rganilgan. Tadqiqotchilar kasbiy samaradorlikni nafaqat bilim va ko'nikmalar bilan, balki shaxsiy psixologik xususiyatlar bilan ham bog'liq ekanligini ta'kidlashadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Bo'lajak pedagoglarning kasbiy faoliyat samaradorligini oshirish mavzusi pedagogika va psixologiya sohalarida keng o'rganilgan. Tadqiqotchilar kasbiy samaradorlikni nafaqat bilim va ko'nikmalar bilan, balki shaxsiy psixologik xususiyatlar bilan ham bog'liq ekanligini ta'kidlashadi.

K.B. Ayzenk temperament nazariyasi asosida pedagoglarning shaxsiy xususiyatlari va kasbiy faoliyat samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatgan. Unga ko'ra, ekstravert va neyrotizm darajasi pedagogning sinf ichidagi muloqot va emotsional barqarorligiga ta'sir qiladi.

Vygotskiy va Leontyevning nazariy ishlari bo'yicha, kasbiy faoliyat samaradorligi shaxsning ichki motivatsiyasi, refleksiya qobiliyati va shaxsiy rivojlanish darajasiga bog'liqdir. Bo'lajak pedagoglarda motivatsiya va shaxsiy o'sish jarayoni kasbiy malaka shakllanishida muhim omil hisoblanadi.

Zamonaviy tadqiqotlar, masalan, S.Karyagina (2020) va M. Ibragimova (2018), pedagoglarning emotsional barqarorligi va kommunikativ kompetensiyalari ularning samaradorligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynashini ko'rsatadi. Shu bilan birga, psixologik tayyorgarlik dasturlari va treninglar bo'lajak pedagoglarning o'z-o'zini boshqarish, stressga chidamlilik va pedagogik innovatsiyalarni qo'llash qobiliyatini rivojlantiradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak pedagoglarda kasbiy samaradorlikni oshirish faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmasdan, shaxsiy psixologik tayyorgarlik, motivatsiya va emotsional barqarorlikni rivojlantirishni ham o'z ichiga olishi lozim. Bu jihatlar pedagogika va psixologiya sohasida zamonaviy tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlaridan biridir.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak pedagoglarning kasbiy faoliyat samaradorligi ularning psixologik xususiyatlari bilan bevosita bog'liq. Tadqiqotlarda aniqlangan asosiy omillar — kasbiy motivatsiya, emotsional barqarorlik, muloqot kompetensiyalari va refleksiya qobiliyatidir. Bu omillar pedagogning o'quv jarayonini samarali tashkil etish, stressli vaziyatlarda o'zini boshqarish va innovatsion pedagogik yondashuvlarni qo'llash qobiliyatiga ta'sir qiladi.

Masalan, yuqori darajadagi kasbiy motivatsiyaga ega bo'lgan bo'lajak pedagoglar o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatadi va dars jarayonini faol boshqaradi. Shu bilan birga, emotsional barqarorlik darajasi past bo'lgan pedagoglarda stressga chidamlilik pastligi va pedagogik faoliyat samaradorligining kamayishi kuzatiladi. Bu natija K. Ayzenkning temperament nazariyasi bilan uyg'unlikda bo'lib, ekstravert va neyrotizm darajasi pedagogning ish faoliyatiga ta'sir qilishi aniqlangan. Shuningdek, refleksiya qobiliyati va psixologik tayyorgarlik darajasi pedagoglarning o'z

kasbiy malakasini muntazam rivojlantirishiga xizmat qiladi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, psixologik tayyorgarlik dasturlari bo'lajak pedagoglarning o'z-o'zini boshqarish, stressga chidamlilik va kasbiy innovatsiyalarni qo'llash qobiliyatini oshiradi.

Muhokama natijalari shuni tasdiqladiki, pedagogik tayyorgarlik jarayonida psixologik jihatlarni hisobga olish nafaqat bo'lajak pedagogning kasbiy samaradorligini oshirish, balki ta'lim jarayonining sifatini yaxshilashda ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ta'lim muassasalarida psixologik treninglar, emotsional barqarorlikni rivojlantirish mashg'ulotlari va motivatsion dasturlarni joriy etish tavsiya etiladi.

Xulosa. Bo'lajak pedagoglarda kasbiy faoliyat samaradorligini oshirishning psixologik jihatlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, samaradorlik ko'plab ichki va tashqi omillarga bog'liq. Shu jumladan, pedagogning motivatsiyasi, emotsional barqarorligi, shaxsiy xususiyatlari va ijtimoiy ko'nikmalari muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari pedagoglarni psixologik tayyorlash, kasbiy malakani oshirish va samarali pedagogik faoliyatni ta'minlash uchun aniq tavsiyalar ishlab chiqishga yordam beradi. Shu bilan birga, psixologik qo'llab-quvvatlash va individual yondashuv bo'lajak pedagoglarning professional rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Bo'lajak pedagoglarda kasbiy faoliyat samaradorligini oshirishda psixologik omillar yetakchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu omillar shaxsning ichki motivatsiyasi, kasbiy o'zini anglash va emotsional barqarorligi bilan chambarchas bog'liq. Talaba pedagog o'z kasbining mazmunini chuqur anglagan sari unda mas'uliyat hissi va maqsadga yo'naltirilganlik kuchayadi. Psixologik tayyorgarlik jarayoni davomida refleksiya ko'nikmalarining rivojlanishi o'qituvchilik faoliyatida to'g'ri qaror qabul qilishga xizmat qiladi. Stressga chidamlilik va o'z his-tuyg'ularini boshqara olish qobiliyati pedagogik vaziyatlarda muvozanatni saqlash imkonini beradi. Ijobiy o'zini baholash bo'lajak pedagogning o'z kuchiga ishonchini mustahkamlab, tashabbuskorlikni rag'batlantiradi. Psixologik iqlimni to'g'ri qabul qila olish jamoa bilan samarali hamkorlikni ta'minlaydi. Empatiya va muloqot madaniyatining shakllanishi o'quvchilar bilan sog'lom munosabat o'rnatishga yordam beradi. Bunday psixologik sifatlar ta'lim jarayonining sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Natijada bo'lajak pedagogning kasbiy faoliyati barqaror va samarali tus oladi.

Kasbiy samaradorlikni oshirishda psixologik rivojlanishni tizimli qo'llab-quvvatlash muhim hisoblanadi. Ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv bo'lajak pedagogning individual ehtiyojlarini inobatga olish imkonini yaratadi. Psixologik treninglar va amaliy mashg'ulotlar orqali kasbiy qobiliyatlar bosqichma-bosqich mustahkamlanadi. O'zini o'zi rivojlantirishga intilish pedagogik mahoratning uzluksiz takomillashuvini ta'minlaydi. Ichki motivlarning kuchayishi tashqi rag'batlarga qaramlikni kamaytiradi. Shuningdek, kasbiy qadriyatlarining shakllanishi pedagogning faoliyatiga mazmun va yo'nalish bag'ishlaydi. Psixologik savodxonlik oshgani sari murakkab ta'limiy vaziyatlarga moslashish osonlashadi. Bu holat o'qituvchining o'z ishidan qoniqish hissini kuchaytiradi. Qoniqish hissi esa kasbiy charchashning oldini olishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Айзенк, Г. (1991). Темперамент и личность. Москва: Наука.
2. Выготский, Л. С. (1982). Мышление и речь. Москва: Просвещение.
3. Леонтьев, А. Н. (1978). Деятельность. Сознание. Личность. Москва: Педагогика.
4. Ахмедова, Н. (2019). Kasbiy motivatsiya va pedagoglarning kasbiy samaradorligi. *Pedagogika va psixologiya jurnali*, 4, 15–23.
5. Shukurova, D. (2021). Bo'lajak pedagoglarda refleksiya va shaxsiy rivojlanishning roli. *Ta'lim va rivojlanish*, 2, 30–38.

Nishonova Zuxra Voxidjon qizi
TIU English language teacher Namangan, Uzbekistan
ORCID: 0009-0002-7370-0916

THE DEVELOPMENT OF THE PHONICS APPROACH AND ITS ROLE IN MODERN EDUCATIONAL PARADIGMS

Abstract: The phonics approach has long been considered a fundamental method in early literacy instruction, particularly in primary education. This article examines the historical evolution of the phonics approach and its role within modern educational paradigms. Drawing on key theoretical frameworks and empirical studies, including the National Reading Panel (2000) and the Rose Report (Rose, 2006), the study highlights the effectiveness of systematic phonics instruction in developing decoding skills. At the same time, the article critically evaluates the limitations of phonics when applied in isolation and emphasizes the importance of integrating phonics with broader literacy practices (Duke & Pearson, 2002). The findings suggest that phonics should be embedded within communicative and constructivist approaches to support meaningful language development and reading comprehension.

Keywords: phonics approach, synthetic phonics, early literacy, reading instruction, decoding skills, literacy development, primary education, constructivist learning, communicative approach, reading comprehension.

Нишонова Зухра Вохиджон кизи
Преподаватель английского языка TIU, Наманган, Узбекистан
ORCID: 0009-0002-7370-0916

РАЗВИТИЕ ФОНИЧЕСКОГО ПОДХОДА И ЕГО РОЛЬ В СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПАРАДИГМАХ

Аннотация: Фонический подход давно считается одним из основных методов обучения чтению на начальном этапе, особенно в начальной школе. В данной статье рассматривается историческое развитие фонического подхода и его роль в современных образовательных парадигмах. Опираясь на ключевые теоретические модели и эмпирические исследования, включая отчёт National Reading Panel (2000) и доклад Rose (2006), в работе подчеркивается эффективность систематического обучения фонетике в развитии навыков декодирования. В то же время проводится критический анализ ограничений данного подхода при его изолированном применении и подчеркивается необходимость его интеграции с более широкими практиками обучения грамотности (Duke & Pearson, 2002). Результаты исследования показывают, что фонический подход должен быть встроен в коммуникативные и конструктивистские методы обучения для обеспечения полноценного развития языковых навыков и понимания текста.

Ключевые слова: фонический подход, синтетическая фонетика, ранняя грамотность, обучение чтению, навыки декодирования, развитие грамотности, начальное образование, конструктивистское обучение, коммуникативный подход, понимание текста.

Nishonova Zuxra Voxidjon qizi
TIU ingliz tili o'qituvchisi, Namangan, O'zbekiston
ORCID: 0009-0002-7370-0916

FONIKA YONDASHUVINING RIVOJLANISHI VA UNING ZAMONAVIY TA'LIM PARADIGMALARIDAGI O'RNI

Annotatsiya: Fonik yondashuv uzoq vaqtdan beri, ayniqsa boshlang'ich ta'limda, o'qish savodxonligini o'rgatishning asosiy metodlaridan biri sifatida qaraladi. Mazkur maqolada fonik yondashuvning tarixiy rivojlanishi hamda uning zamonaviy ta'lim paradigmalari doirasidagi o'rni tahlil qilinadi. National Reading Panel (2000) hisobotlari va Rose Report (2006) kabi muhim nazariy

hamda empirik tadqiqotlarga tayangan holda, maqolada tizimli fonik ta'limning dekodlash ko'nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligi yoritib beriladi. Shu bilan birga, fonik yondashuvni alohida holda qo'llashning cheklovlari tanqidiy tahlil qilinadi hamda uni kengroq savodxonlikni rivojlantirish amaliyotlari bilan integratsiya qilish zarurligi asoslanadi (Duke & Pearson, 2002). Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, fonik yondashuv mazmunli til rivoji va o'qishni tushunishni ta'minlash uchun kommunikativ va konstruktivistik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirilishi lozim.

Kalit so'zlar: fonik yondashuv, sintetik fonika, erta savodxonlik, o'qishni o'rgatish, dekodlash ko'nikmalari, savodxonlikni rivojlantirish, boshlang'ich ta'lim, konstruktivistik ta'lim, kommunikativ yondashuv, matnni tushunish.

Introduction: The process of learning to read is one of the most significant milestones in a child's educational development. Among various instructional approaches, phonics has emerged as a central method for teaching early reading skills (Adams, 1990). Phonics focuses on the relationship between sounds (phonemes) and letters (graphemes), enabling learners to decode written language systematically (Ehri, 2005). Despite its long-standing presence in education, the role of phonics has evolved considerably in response to changing pedagogical theories and empirical research.

In contemporary education, the emphasis has shifted from isolated skill acquisition to integrated and meaningful learning experiences (Pressley, 2006). As a result, phonics is no longer viewed as a standalone method but as part of a broader literacy framework.

Historical Development of the Phonics Approach

